


Musoning mo'jizalari



15:00 / 09.01.2022 8953

Fir'avn o'zining g'azab o'qlarini bo'shatgach, Muso uni Alloh o'qi bilan otmoqchi bo'ldi.

«(Muso) **dedi**» **Yoki men senga ochiq-oydin narsa keltirsamchi?!**»

«(Fir'avn) **dedi**: **«Agar rostgo'y kishilardan bo'lib, oyat mo'jiza bilan kelgan bo'lsang, qani uni keltir».**

«**Shunda** (Muso tutib turgan) **asosini tashlagan edi, banogoh u aso rostakam ajdarga aylandi. Keyin qo'lini** (cho'ntagidan) **chiqargan edi, banogoh u qarab turganlarga** (kundan ham) **oq bo'lib ko'rindi.** (Holbuki, Muso qoramag'iz odam edi)».

Fir'avn hamsuhbatlariga aytish uchun yana gap topdi. «(Fir'avn) **atrofidagi kishilarga dedi**: **«Albatta bu bilimdon sehgardir».**

Majlis ahli ham uning so'zini quvvatlab: **«Bu ochiq sehr» dedilar».**

«**Muso dedi**: **«Sizlarga haqiqat kelgan vaqtda** («Bu sehr»), **deysizlarmi?! Sehrmi shu? Axir sehrgarlar muvaffaqiyat qozonolmaydilar-ku?!**»

Fir'avn Musoga boshqa o'q otdi va: «Ular dedilar: «Sen bizlarni otabobolarimizni amal qilgan holda topgan dinimizdan burish uchun va ikkovingiz yerimizga ega bo'lib olish uchun keldingmi?! Biz sizlarga iymon keltirguvchi emasmiz!».

Fir'avn xalqni podshohlar qiligi kabi Muso alayhissalomga qarshi qayramoqchi bo'ldi:

«Fir'avn aytdi: «U sizlarni o'z yeringizdan chiqarmoqchi, nima deysizlar?»

Shunda kishilar Fir'avnga quyidagicha maslahat berdilar:

- Sen mamlakatingdagi jami o'tkir sehrgarlarni to'plagin. Ular Musoni mag'lub qilsinlar. Shunday qilib butun Misr mamlakati bo'ylab jarchilar

tarqatildi:

- «Ogoh bo'lingizkim, kimda-kim sehr (qilish)ni bilsa, shoh huzuriga borsin».

Mamlakatning turli burchaklaridan sehrgarlar yig'ildi. Ziynat kuni deb atalgan bayram kuni va'dalashilgan vaqt bo'ldi.

«Odamlarga aytili: «Sizlar to'planguvchimisizlar?»

Shoyad biz, agar ular g'olib bo'lsalar, sehrgarlarga ergashsak».

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad